



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING  
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 9 - oktabr

159-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Yer maydonini qisman zahiraga qaytarish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36 va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, “SURXON ASL SAVDO TAMINOT” MCHJning 2021 yil 7 iyundagi 2-son xatini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Termiz shahridagi “SURXON ASL SAVDO TAMINOT” MCHJ ga viloyat hokimining 2018 yil 31 maydagi Q-417-son qaroriga asosan Denov tumani “Oxunboboyev” SIU hududidan “Karvon savdo markazi” qurilishi uchun ajratilgan jami 52,18 hektar yer maydonining qisman 45,18 hektari Denov tuman hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olinsin.

2. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (M.Abduraxmanov) yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan tuman yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishni ta’minlasin

3. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida ([surxondaryo.uz](http://surxondaryo.uz)) e’lon qilinsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**